

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar fakul`teti
Geografiya o`qitish metodikasi kafedrası
« Geografiya o`qitish metodikasi » ta`lim yo`nalishi

4 b-kurs talabasi

Jumabaev Odilbek

«Toponimika va geografik nomlar klassifikatsiyasini
uqitishning dolzarb masalalari» mavzusidagi bakalavr

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Kafedra mudiri: p.f.n., dots. Gaypova R.

Ilmiy rahbar: g.f.n., dots. Seitniyazov Q.

Nukus 2016

I-BOB BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLARNING BOSHLANISH DAVRI.

1.1. BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR DAVRIDA GEOGRAFIYA FANINING RIVOJLANISHI

Buyuk geografik kashfiyotlar davri deb - XV asrning o'rtasi yoki oxiridan XVII - asr o'rtalarigacha bo'lgan davrlar aytiladi. Buyuk deb atalishga loyiq geografik kashfiyotlar har doim ham bo'lgan, lekin hech qaysi davr Buyuk geografik kashfiyotlar davridagidek dunyo taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan kashfiyotlarga boy bo'lmagan.

Ushbu davrga qadar yevropaliklarga Yevropa, Osiyo va Afrikaning bir qismigina ma'lum edi. Sharqdan kelayotgan turli savdogarlarning ma'lumotlariga suyanib Xitoy, Hindiston va Yaponiya haqida dunyodagi eng boy hududlar sifatida tasavvur hosil bo'lgan edi. Bu mamlakatlardan olib kelinayotgan mollar, ayniqsa ziravorlar Yevropada juda qimmat turar, yevropaliklarning oltin va kumushlari kamlik qilib qolgan edi. Shuning uchun ham o'rta asrlarda har qanday metallni oltinga aylantirishni va'da qiluvchi alximiya fani rivojlanib ketdi. Yevropaliklar Sharqning boy o'lkalariga yetib borishga urinardi, ammo XV- asrda Usmoniylar imperiyasi quruqlik yo'lini to'sib qo'ygan edi.

Buyuk geografik kashfiyotlar jahon taraqqiyotiga benihoya katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Kashfiyotlar jahon savdo yo'llarini butunlay o'zgartirib yubordi. Endi savdo yo'llari O'rta Yer dengizi bo'ylab emas, balki okeanlar orqali o'tadigan bo'ldi. Yangi ochilgan yerlar bilan savdo aloqalari – jahon savdosini vujudga keltirdi. Geografik sayohatlar kashf etilgan “Yangi dunyo” bilan “Eski dunyo” madaniy o'choqlari orasida bevosita iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatilishiga imkoniyat yaratildi.

Buyuk geografik kashfiyotlar yevropaliklarning dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytirib, bilimlarini oshirdi. O'zga qit'alar va xalqlar to'g'risidagi ko'plab

afsonalar, noo'rin fikrlar chilparchin bo'ldi. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi Yevropada sanoat va savdoning yuksalishiga, moliya sohasida bank va kredit ishlarida yangicha uslublar yaratilishiga imkon berdi.

Geografik kashfiyotlar va mustamlakala yerlarni bosib olish Yevropa mamlakatlarida tovar ishlab chiqarishning o'sishiga yordam berdi. Lekin, bu ishlar Amerika, Osiyo va Afrika xalqlarining asrlar davomidagi qulligi, tahqirlanishi, og'ir mehnatlari evaziga bo'ldi. Ular Yevropada yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yaratilishiga xizmat qildilar.

Ispanlar va portugallar buyuk geografik kashfiyotlarning yo'l boshchilari bo'ldilar. Masalan, Portugaliya XIII-XV-asrlar davomida Shimoliy Afrikada arablar bilan urushlarni davom ettirib yaxshigina dengiz flotini tuzishga erishdi, O'rta Yer dengizidan Shimoliy va Boltiq dengizlariga boradigan muhim savdo yo'li Portugaliya qirg'oqlari yaqinidan o'tganligi sababli Portugaliya portlariga turli mamlakatlardan kemalar kelib turardi. Dengiz kemalarida xizmat qilish va baliq ovlash sohil bo'yida yashovchi ko'pchilik aholining asosiy mashg'uloti edi. Keyinchalik ulardan dovyurak va tajribali dengizchilar ham yetishib chiqdi.

Kashfiyotlarning birinchi davrasida, shahzoda Genrix Dengizchining (1418-1460-yillar) iste'dodi, tashkilotchiligi tufayli nafaqat savdogarlar, balki dvoryanlar ham ishtirok etishdi. Natijada XV - asrning 20-30 - yillaridayoq portugaliyaliklar Madeyra, Kanar va Azor orollarini kashf qilishdi. Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari bo'ylab janubga siljib, portugal dengizchilari Boxador burnini chetlab o'tib, 1434 - yili Gvineya qirg'oqlariga, Yashil Burun orollariga va 1462 - yili Serra-Leonega yetib bordilar.

Portugallar o'zlari olib borishgan turli rangli matolar, shisha, marjonlar, kichkina oynachalar kabi mayda-chuyda buyumlarga mahalliy aholidan oltin aralashgan qum va fil suyaklarini almashtirib olardilar. Keyinchalik boshlangan qul savdosining markazi ham xuddi shu yerda bo'lgan. Kartalarda saqlanib qolgan

Qullar qirg'og'i, Oltin qirg'oq, Fil Suyagi qirg'og'i kabi rasmiy nomlar bejiz paydo bo'lmagan.

Portugallarning Bartalomeo Diash boshchiligidagi ekspeditsiyasi 1486-yili Afrikaning janubiy nuqtasini aylanib o'tib, Hind okeaniga chiqdi. Lekin uzoq davom etgan og'ir yo'l mashaqqatlaridan toliqqan dengizchilar safarni davom ettirishdan bosh tortdilar. Afrika qit'asining eng janubiy nuqtasini, portugallar Hindistonga boradigan yo'lni yaqin orada ochilishini umid qilib Yaxshi Umid burni deb atadilar.

Amerika tub aholisi, hindularning ajdodlari qit'aga bundan 46-48 ming yil avval Shimoliy Osiyodan hozirgi Bering bo'g'ozi orqali ko'chib o'tishgan. Faqat XIX asrdan boshlab Amerika xalqlari tarixini o'rganish ilmiy asosda yo'lga qo'yildi. Tadqiqotchilar hindularning ajoyib olami, qadimiy davlatlari va o'ziga xos madaniyati borasida yangi kashfiyotlar qildilar.

Amerika qit'asida turli tillar oilasiga tegishli xalqlar yashagan. Ular xo'jalikning turli sohalari bilan shug'ullanib kelishgan. Ko'p qabilalar ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirganlar. Shu bilan birga Shimoliy Amerikaning janubiy qismida, Markaziy va Janubiy Amerikaning tog'oldi vodiylari hamda bir-biriga yaqin bo'lgan katta-kichik vohalarda yaxshi rivojlangan dehqonchilik xo'jaliklari ham bo'lgan. Bu joylarda kechua, mayya, astek, olmek, toltek xalqlari dehqonchilik qilishgan. Ular toshboltalar bilan o'rmon kesib, daraxtlarni yoqib kuli bilan yerni o'g'itlaganlar. Amerika qishloq xo'jaligida Yevropada ma'lum bo'lmagan: makkajo'xori, kartoshka, kungaboqar, pomidor, kakao, tamaki yetishtirilgan.

Qit'ada qo'lga o'rgatilgan hayvonlar juda kam bo'lgan. Ma'lumki ot, sigir, qo'y kabi uy hayvonlari Amerikaga yevropaliklar tomonidan keltirilgan. Amerikada xonakilashtirilgan hayvonlar, shimolda it, janubda tuyasimon lama, kurka va o'rdaklar bo'lgan, xolos. Hindular boshqa qit'alar aholisiga qadimdan tanish bo'lgan temir eritishni bilmaganlar. Shu sababli ularda temir asbob-

uskunalar, omoch, g'ildirak, turli o'tochar qurollar bo'lmagan. Hindular ish qurollarini yog'och, tosh va jezlardan yasashgan. Aholining ko'pchiligi ibtidoiy jamoa tuzumi darajasida yashaganlar. Aytish kerakki, shu bilan birga mayya, astek va inklarda ilk davlatlar paydo bo'lgan edi, ularning xo'jaligi, madaniyati taraqqiyoti boshqa elat va qabilalardan ancha ustun turgan.

Masalan, Markaziy Amerikaning Yukatan yarim orolida, hozirgi Meksika hududida mayya xalqlari yashagan. Ular barpo etgan mayya davlatida yer jamoalarga qaragan, jamoa esa o'z tarkibidagi har bir oilaga o'rmondan tozalangan yer maydonini berib jamoa a'zolari yetishtirgan hosilning bir qismini hukmron aslzodalar va kohinlarga soliq sifatida berganlar. Xo'jalikda, shuningdek, urushlarda olingan asirlar, qarzlar tufayli qulikka tushgan kishilar ham ishlagan, Milodning birinchi ming yilligida mayyalarda shahar-davlatlar vujudga kelgan. Bu shaharlarda "buyuk kishilar" hukmdorlik qilganlar. Mayyalarda hokimiyat nasldan-naslga o'tardi. Hukmdor aholidan tushgan soliqlar evaziga davlat ishlarini yuritgan.

Zodagonlar shahar markazidagi tosh qasrlarda, oddiy xalq esa shahar atrofidagi tomi qamishdan yopilgan, pastqam, uylarda yashaganlar. Milodning boshlarida mayyalarda yozuv paydo bo'lgandi. Ibodatxonalarda kohinlar qilqalam bilan iyerogliflarni (suratii yozuv) yozib turli diniy kitoblar yaratganlar. Mayya xalqlari hayotida kohinlarning roli ayniqsa katta bo'lgan. Ular jamoa a'zolariga dehqonchilik ishlarini olib borish muddatlarini belgilab berishgan. Dehqonchilik ehtiyojlari uchun kalendar- taqvim zarur bo'lgan va mayyalar qadimgi xalqlar ichida eng aniq taqvimlardan birini yaratgan. Mamlakat poytaxti - Chichen-Isadagi rasadxonada kohinlar sayyoralarni Quyosh atrofida aylanish vaqtini hisoblab chiqqanlar. Mayya astronomlari Quyosh va Oyning tutilishlarini oldindan aniqlaganlar. Me'morchilikda ham mayyalar o'lgan muvaffaqiyatlarga erishganlar. Ular baland poydevorlarda va sun'iy tepaliklarda zinali ehromlar (piramidalar) shaklda qasr va ibodatxonalar qurishgan. Saroy va qasrlarni -bo'rtma suratlar,

ma'budalarning haykallari, freskalar - devordagi rasmlar bilan bezashgan. Mayyalar shaharlari ko'chalari tekis va ravon hamda tosh yotqizilgan bo'lgan.

1.2. PORTUGALIYA VA ISPANIYANING BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR DAVRIDA HUDUDLARNING KENGAYTIRISHI

Buyuk geografik kashfiyotlarning birinchi bosqichida bu kashfiyotlarni amalga oshirish ma'lum tarixiy sabablarga ko'ra Ispaniya va Portugaliya zimmasiga to'g'ri keldi. Bir necha 10 yil davomida Pireney yarim orolidan chiqqan sayyohlar Sharq mamlakatlariga ikki tomonlama – Afrikaning janubiy chekkasidan aylanib o'tuvchi janubi-sharqiy va Janubiy Amerikaning janubiy chekkasidan aylanib o'tuvchi janubi-g'arbiy yo'lni ochdilar. G'arbiy yo'l izlab Amerika qit'asini kashf etdilar va o'zlashtira boshladilar.

XVII asr o'rtalariga kelib Pireney davlatlari ochilgan yerlardagi boyliklardan qoniqib, yangi yerlarni izlashdan voz kehdilar. O'sha davr hujjatlariga ko'ra Osiyoga boriladigan yo'llar shu ikki davlatga Rim papasining qarori – bullasi bilan tasdiqlangan edi, Chunonchi, 1481 yilda papa Sikst VII portugallarga Boxador burnidan janubga to hindlarga qadar bo'lgan hududni "Aeterni Regis" bullasi bilan taqdim etgan. Kolumbning Hindistonga yetib borganligi haqidagi xabardan keyin portugallar Rim papasi huzurida da'vo ishini qo'zg'adilar. Natijada endi 1493 yilda papa Aleksandr VI yangi "Inter cetera" bullasini e'lon qildi. Bulladagi so'zlar geografik jihatdan mantiqsiz bo'lsada ispanlar va portugallarning kemalari suzadigan hududlar uchun demarkasion chiziqni belgilab berdi, bu chiziq ta'xminan 380 g'arbiy uzunlikdan o'tadi. Ushbu bulladagi geografik xatoliklarni, masalan "meridiandan janubga tomon" kabi so'zlarni tuzatish asnosida ispan va portugal hukumatlari o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi va 1494 yilda Tordesil'yas shahridagi sulh bilan yakunlandi. Bu sulh natijalariga ko'ra yangi demarkasion chiziq o'tkazilib, bu 460 30' g'arbiy uzunlikdan o'tadi. Shunday qilib, Atlantika okeanining sharqiy qismi va Afrika qirg'oqlari, Hind okeani orqali

Hindiston va Molukka orollarigacha boriladigan dengiz yo'llari Portugaliyaga, Atlantika okeanining g'arbiy qismi va Yangi dunyo qirg'oqlari orqali Tinch okeani va undan Hindixitoy yarim orollarigacha boriladigan dengiz yo'llari Ispaniyaga tegishli bo'ldi. Shu bilan Buyuk geografik kashfiyotlar davrining birinchi bosqichi tugadi.

Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi, Portugaliyaning dengiz davlatiga aylanishi bilan bog'liq bo'lib, dengizlarda hukmronlik qilish g'oyasi Dengizchi laqabli portugal shahzodasi Enrikega tegishli edi. Shahzoda Afrikaning janubiy qirg'oqlari orqali Hind okeaniga yo'l topish uchun bir qancha ekspedisiyalarga homiylik qilgan. 1416 yildan 1460 yilgacha 10 lab ekspedisiyalar Afrika qirg'oqlari bo'ylab janubga suzdilar. 1419 yilda Madeyra orollari kashf qilindi.

Portugallar ochiq okeanga chiqishdan qo'rqib qirg'oqni ko'zdan qochirmagan holda suzishar va 260 shimoliy kenglikdan o'ta olmas edilar. Afrikaning sahroga xos qirg'oqlari hych tugamaydigandek tasavvur uyg'otardi. O'sha davrda Boxador burnidan o'ta olmagan portugallar shahzodaning majburlashlariga ko'ra sayohatga o'tlanishar, muvaffaqiyatga ishonishmasdi. 1434 yilda Jil Eanish Boxador burnidan o'tdi va Portugaliyaga qaytib keldi.

Portugallar Afrika qirg'oqlari bo'ylab bosqinlar uyushtirib, 1441 yildan qora tanli qullar bilan savdo qilishni Yevropada rasm qildilar. Tez orada Yashil burun (Al'madi burni) kashf etildi. Alvize de Kodomosta Yashil burun orollarini kashf etdi. 1462 yilda Pedru di Sintra Serra-Leonega yetib bordi va Gvineya qo'ltig'i qirg'qlarini Afrikaning janubiy chekka qirg'oqlari deb o'yladi, holbuki maqsadgacha 8 ming km bor edi...

Portugallarning to'xtovsiz suzishlari natijasida Afrikaning qirg'oq chiziqlari aniq bo'la boshladi. XV asr oxirida Dogu Kon Gvineya qo'ltig'idan janubga 2500 km masofaga suzdi va Namibiya qirg'oqlariga yetdi. Aynan shu sayyoh qirg'oqlarga tosh ustun belgilari – padranlarni o'rnatishni odat qildi va bu usul keyingi sayyohlar uchun mo'ljal bo'lib xizmat qildi. Joan II davrida Bartolemey

Dias boshchiligidagi ekspedisiya Afrikaning janubiy qirg'oqlariga yetib bordi va Hind okeaniga chiqdi. Ammo bo'ronlar va qiyinchiliklar dengizchilarning orqaga qaytishiga sabab bo'ldi.

Portugaliya qirolligining Hind okeaniga har yili o'nlab harbiy kemalarni yuborishidan maqsad faqat savdo-sotiq bo'lmagan, albatta. Lekin Portugaliya bu usulda Hindistonni va Osiyoning millionlab aholisi bo'lgan boshqa mamlakatlarini istilo qilishga qodir emasdi. Portugallar " Hindistonda, Arabistonda, Sharqiy Afrika dengiz sohil-larida bir necha muhim port shaharlarini bosib oldilar. Istilo qilingan shaharlar aholisi qirg'in qilinib, qal'alar vayronaga aylantirildi, Hindistonda "Xayriyatki, portugallar yo'lbars va sherlar kabi ozchilik, aks holda, ular Yer yuzidagi hamma odamlarni qirib, butunlay yo'q qilib yuborgan bo'lardi", - deb aytishardi.

Portugallar arab va hind savdogarlarining mollarini talar va kemalarini dengizga cho'ktirib yuborar, asir olingan kema a'zolarini esa o'ldirar yoki qul qilib solar edilar. Ular o'qotar to'plari, qurol-aslahalari hamda kemalarining ustunligidan foydalanib arablarni asta-sekin Hind okeanidan siqib chiqardilar va Hindistonga boradigan dengiz yo'lini to'liq egallab oldilar, Keyinchalik portugallar ziravorlar: murch, anbar, mushk, dolchinning eng yaxshi navlari yetishtiriladigan Zond va Malakka orollariga kirib bordilar. Sharqqa tomon suzishda davom etgan portugallar vaqt o'tib Xitoy va Yaponiya sohillarigacha yetib borishgan.

Portugaliyaning Amerikadagi istilolari ham o'ziga xos bo'lgan. Aslida Hindistonga yo'l olgan Kabral ekspedisiyasi 1500-yili to'satdan Braziliya qirg'og'iga tushib, uni Portugaliya qiroli yerlari deb e'lon qildi. Qimmatbaho ma'danlarning, ko'psonli zich aholining bo'lmasligi Braziliyaning mustamlakaga aylantirilishini ham o'ziga xos hal qildi. Mamlakatni muttasil o'zlashtirish faqat 1530-yili boshlandi. Qirg'oq rayonlari 13 ta kapitaniyga bo'linib, har biriga yer egaligi joriy etildi,

Portugaliyada ortiqcha ishchi kuchi yo'qligidan, kolonistlarning ko'chib kelishi sust edi. Natijada Afrikadan keltirilgan qullar mehnatiga asoslangan plantasiyalar ko'rinishidagi xo'jalik yuritish ko'proq foyda keltiradigan bo'ldi. XVI - asrning ikkinchi yarmida qul savdosi keng rivojlandi. Masalan, Braziliyada 1583 yili 25 ming kollonistlar qo'l ostida yuz minglab qul-negrlar ishlar edilar.

Ispanlar konkistadorlari tomonidan Meksika va Peruni istilo qilishdan oldin ular dastlab Karib dengizi havzasidagi Kuba, Gaiti, Yamayka, Puerto-Riko orollarini bosib oldilar. Ular yangi ko'chib kelayotgan yurtdoshlari uchun orollarda qal'alar, qishloqlar, yo'llar barpo etdilar. Ispanlar oltin kam bo'lgan bu hududlarni xo'jalik maqsadida o'zlashtira boshladilar. Dastlabki paxta, shakarqamish va ziravor plantasiyalari barpo etildi. Tez orada og'ir mehnatdan, Yevropadan keltirilgan turli yuqumli kasalliklardan mahalliy aholi qirilib, kamayib ketdi. Ularning o'rniga qo'shni orollardan qo'shimcha ishchi kuchi olib kelindi. Keyinchalik Ispaniyadan 20 yilga soliqlardan ozod qilish sharti bilan dehqon-kolonistlar ko'chirib keltirildi. Nihoyat, XVI - asrning o'rtalaridan boshlab Afrika qit'asidan qullar keltirila boshlandi.

Amerikaning istilo qilinishidagi ikkinchi davr 1510-yili boshlandi. Mutaxassislar XVI - asr o'rtalariga qadar davom etgan bu davrni konkistador - istilochilar davri deyishadi, Konkistadorlar 1510-yili Panamada dastlabki istehkomlarini qura boshladilar. Nunes Balbao 1516-yili Panama yerlarini sharqqa kesib o'tib Tinch okeani sohiliga chiqdi. Qit'adagi dastlabki shahar Panamaga ham 1519-yili ispanlar asos solgan.

Yukatan yarim orolida 1517-1518-yillari qullarni izlab yurgan ispanlar bo'linmasi birinchi marta yuksak madaniyatli - mayya shaharlariga duch keldilar. Mayyalar ko'ziga ot ustidagi ispanlar bahaybat maxluq bo'lib ko'ringan bo'lsa, ispanlar o'z navbatida shahar va ehromlarni ko'rib hayratda qoldilar.

Xuddi shu Mayya davlatini zabt etish uchun 1519-yili o'zining 16 ta otliq va 400 kishilik bo'linmasi bilan Ernan Kortes Meksika qirg'og'iga qayiqlardan

tushgan. Asteklar bosib olgan yerlardagi mahalliy xalq amaldagi aslida, boshqa qabiladan bo'lgan o'z hukmdorlariga qarshi ispanlarga yordam berdilar. Kortes o'z harbiy bo'linmasini hindular bilan to'ldirib, asteklar poytaxti Tenochtitlan (uni ispanlar Mexiko deb atashgan) ni qamal qildilar. Asteklar otliqlarni ko'rishlari bilan dahshat va sarosimaga tushib qoldilar. Asteklar podshosi dastlabki mag'lubiyatlardan esankirab qolib, o'z poytaxtiga ispanlarning kirishiga ijozat berdi. Ko'p vaqt o'tmasdan Kortes hiyla-nayrang ishlatib asteklar podshosini hibsga olib, uning nomidan davlatni idora qila boshladi. Aholi ispan qiroli hokimiyatini tan olib, ispanlarga oltin hisobida o'lpon to'lashga majbur qilindi. Asteklarning asrlar davomida to'plagan xazinasiga yashirin eshikni topgan ispanlar uni qo'lga kiritib, bo'lib olishdi. Xazinaning asosiy qismi Ispaniya qiroli va Kortesga tegdi.

Istilochilarning shafqatsizligi va ochko'zligidan g'azablangan asteklar qo'zg'olon ko'tardilar. Tungi jangda Kortesning ko'pgina askarlari halok bo'ldi, o'zi esa qurshovdan zo'rg'a qochib qutuldi. Oradan ko'p o'tmay o'z harbiy bo'linmasini Kubadan kelgan ispanlar va hindular bilan to'ldirgan Kortes yana Mexikoni qamal qildi. Qamal 225 kun davom etib, shahar aholisi deyarlik qirib tashlandi. Tenochtitlan shahri qo'lga kiritilgan bo'lsa ham, ammo Meksika yerlarini to'liq bosib olishga ispanlarga yana yigirma yil vaqt kerak bo'ldi.

Mustamlakachilarning ikkinchi oqimi Panamadan janubga yo'l oldi. Bosqinchilarni hindulardan eshitgan Beru (Peru) afsonaviy boy davlati o'ziga tortardi. Istilochilar bo'linmasini chalasavod, lekin uddaburon va zolim idalgo (idalgo - zodagon, dvoryan kishilar vakili) Fransisko Pizarro boshqardi. Ispanlarning 250 kishidan iborat bo'linmasi 1532-yili Peruga hujum boshladi. Inkalar podshosini aldash yo'li bilan asir olgan Pizarro uni ozod qilish evaziga juda ko'p oltin talab qildi

Katta bir xona to'la oltinni olib bo'lgandan keyin Pizarro o'z va'dalarini bajarmasdan, podshoni xoinona sud qilib o'limga hukm qildi, Ispanlar Peru poytaxtidagi ibodatxoalarni beayov taladilar, Ular olingan o'ljalarni taqsimlashda

oltin va kumushdan yasalgan san'at buyumlarini eritib yombi qildilar va tashib ketdilar. Ispan istilochilari Amerika tub xalqlarining qadimgi yuksak madaniyatini vahshiyona suratda yo'q qildilar.

Tez orada ispanlar butun Janubiy Amerikani bosib oldilar. Faqat Braziliya yerlarigina portugaliyaliklarga o'tdi. Ispanlar hindular yerlarini tortib olib o'zaro taqsimladilar. Mahalliy aholi qul qilindi va qaram kishilarga aylantirildi. Ular nazoratchilar qamchisi ostida yer chopib ekin ekib va mol boqardilar. Oltin va kumush konlarida ishlashga jalb qilingan minglab kishilar og'ir mehnatdan, kasalliklardan qirilib ketdi.

Erksevar hindular istilochilar uchun ishlashni istamasdilar. Natijada ularning ko'pchiligi o'z yaqinlarini va o'z-o'zini o'ldirardi. O'rmon va tog'larga qochib ketgan kishilar xuddi hayvonlarni ovlagandek itlar bilan tutilardi. Ispanlar ularni ot tuyoqlari ostida toptardilar. Ruhoniylar va rohiblar hindularni xristian diniga o'tishga majbur qilardilar. Cherkov vakillari o'z yovuzliklarini oqlash maqsadida ularni hayvonga o'xshash ruhsiz maxluq deb atardilar.

Xristian cherkovi mustamlakaning dastlabki davrida aholini qul qilishda istilochilarga yordam beribgina qolmasdan, tub aholi madaniyatini yo'qotishda ham faol qatnashdi. Jumladan, yepiskop Diego de Landa mayya xalqlarining kitoblarini, yodgorliklarini yo'qotishda hukm chiqargan edi. Hindular og'ir mehnat, ochlik va turli yuqumli kasalliklar bilan kasallanishlari natijasida tez qirilib keta boshladi. XVI - asrning o'rtalariga kelib Kuba va Karib dengizi havzasidagi boshqa orollarning tub aholisi ispanlar tomonidan qirib, yo'q qilib yuborildi.

Hindular qirilib bitgach, ishchi kuchi yetishmasligi sababli Amerikaga Afrikadan negrlar qullikka keltirila boshlandi. Portugaliyaliklar boshlab bergan qul savdosiga tezda ispanlar, gollandiyaliklar va inglizlar qo'shildilar. Qul savdogarlari negrlarni mahalliy zodagonlardan sotib olar yoki o'zlari ov qilib tutib keltirardilar. Ovga chiqqan harbiylar guruhi kechasi negrlar qishloqlarini o'rab olib, unga har

tomondan o't qo'yar va sarosimaga tushib qolgan odamlarni tutib, qo'l-oyoqlarini kishanlab kemalarga yuklardilar. Ularni kemandagi nihoyatda tor va past tryumlariga qamab olib ketardilar. Uzoq yo'lda asirlarning ko'pi tashnalik va ochlikdan, havo yetishmasligidan halok bo'lardilar. Amerikada negrlar qul bozorida sotilardi.

Avstraliya – janubidagi Yer. Avstraliya materigi 1606 yilda golland sayyohi Vilyam Yanszon tomonidan kashf etilgan. Ammo materik nomi bu quruqlik ochilishidan ko'p yillar avval paydo bo'lgan. Gap shundaki, Yer kurrasining simmetriyalik qonuniga asoslanib, yerning janubiy yarim sharida beshinchi qit'a borligini bashorat qilganlar va bu quruqlikni -janubdagi nomalum Yer - deb ataganlar.

Lotin tilida “Zyud” va “Terra” so'zlari birikmasidan tashkil topgan Avstraliya atamasi “Janubdagi Yer ” mazmuniga ega bo'lsa-da, aslida Yer kurrasining janubiy qutbi atrofida yani Avstraliyadan yanada ham janubroqda boshqa bir quruqlik Antraktida qat'asi borligini bilmaganlar. Avstraliya kashf etilgan 17-asrda uni yirik orol deb hisoblab, “Yangi Gollandiya” deb ataganlar.

Avstraliya kashf etilgandan keyin A.Tasman va boshqalarning sayohatlari natijasida Avstraliya alohida beshinchi – qit'a ekanligini ma'lum bo'ldi. Endigi vazifa janubiy qutb atrofidagi quruqlikni izlash bo'lganligidan uni kashf etishga urinish kuchaydi. Arktikaning qarama-qarshi tomonidagi quruqlik ham kashf etilmasdan oldin Antraktida deb ataldi.

Antraktidani birinchi bo'lib kashf etish uchun o'sha davrning eng kuchli dengiz davlati bo'lgan Angliya, Fransiya, Gollandiya kabi mamlakatlarning nomdor dengiz sayohatchilari harakat qildilar. Antraktidani ochishga jur'at etgan dengiz sayyohlari orasida Jeyms Kuk ham bor edi.

Geografik kashfiyotlar tarixida juda katta o'rin tutgan uch bora dunyo aylana sayohat qilgan bu jasur ingliz sayyohi 1772-75 va 1776-79 yillardagi ikkinchi va uchunchi dunyo aylana sayohatlari davomida janubdagi nomalum

yerni - Antraktidani astoydil izlagan. Ko'pgina orollar to'plamlarini ochgan, Tinch okeaning Antraktika doirasida uning kemalari aysberglar orasida qisilib qolib, rosa qiynalgan.

Antraktidaga ancha yaqinlashgan bo'lsada uning qirg'og'iga yetib borolmagan. O'z kundaliklarida "janubda qalin muz bilan qoplangan qahraton sovuq sharoitli orolni undan kattaroq quruqlik bo'lishi mumkin, ammo, unga yetish juda xatarli, qo'rqmasdan aytishim mumkinki bundan keyin hech kim men yetgan janubiy kenglikdan janubga o'tishga jurat qilolmaydi. Men yetishgan kengliklardan janubda bo'lishi mumkin bo'lgan quruqlik hech qachon tadqiq etilmaydi " deb yozgan edi Jeyms Kuk.

J.Kukning 1775 yildagi ikkinchi dunyo aylana sayohati vaqtida haqiqiqatdan materik atrofida suzish chinakam xavf - xatarga to'la edi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha u janubiy qutb doirasini uch marta janub tomon kesib o'tgan. J.Kuk hozirgi Amudsen dengizi doirasidagi janubiy qutbning quruqlik qirg'og'igacha yaqinlashib, bor-yo'g'i 200 km. uzoqlikdan o'tgan. Bu jasur sayyoh Gavayi orollarida mahalliy aholi bilan to'qnashuvda 1779 yilda halok bo'lgan.

Sayyohning bepisandlik bilan aytgan so'zlari Antraktida qit'asini kashf etishni qariyb 45 yil orqaga surgan. 1819-1820 yillarda dovyurak rus sayyohlari F.F.Belinsgauzen va M.P.Lazarevlar boshchiligidagi "Mirniy" va "Vostok" kemalaridagi sayohat sayyoramizdagi oltinchi materikni Antraktidani kashf etdi. 1820 yil 28- yanvar Antraktidaning ochilgan kuni sifatida tarix safilariga kirdi. Yer sayyorasining janubiy qutbi atrofida eng janubiy materik kashf etilgan bo'lishiga qaramay Avstraliyaning nomi xaritalarda janubdagi Yer sifatida toponim bo'lib qolaverdi.